

MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA MASHQLARNING O'RNI*Elmirza Erkayev,**Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Maqolada talaba/kursantlarning mustaqil ta'limini tashkil etishda mashqlar tizimining ahamiyati masalalari bayon qilingan. Bunday mashqlar sirasini nutq faoliyati turlarini tashkil etuvchi unsurlar - tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv mashqlari tashkil etadi.

Tayanch so'zlar: Mashq, mashq turi, mashq bajarish, nutq faoliyati turlari, yakkanutq, juftnutq, reproduktiv va repetstiv mashqlar.

Turli ta'lim muassasalarida talaba/kursantlarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va takomillashtirishda mashqlar tizimidan foydalanishning alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday mashqlar sirasiga talaba/kursant o'z ustida ishlashi jarayonida reproduktiv va repetstiv mashqlarni bajarishi, og'zaki va yozma tarzda bajariladigan mashqlar, ularning chet tilni o'zlashtirishi, o'zaro mashqlarni mustaqil tarzda bajarishi, muloqot yuritish jarayonida doimo duch keladi.

Chet tillarni mustaqil o'rgatish jarayonida mashqlar bajarishga keng o'rin beriladi. Mashq tushunchasi metodik adabiyotlarda turli ta'rif va tavsiflarga ega bo'lib kelgan [1; 2]. Chet tilni amaliy o'rganish jarayonining o'zi mashqlar bajarishdan iboratdir. Mashqning tarkibiy qismlari metodik adabiyotlarda mashq talabi va mashq materiali nomi bilan yuritiladi. O'z navbatida mashq kichik yig'indilar sistemasidan iborat bo'lib, ular nutq faoliyati turlari va til materiallari mashqlariga bo'linadi. Nutq va til materialini o'rgatish mashqlari kichik sistemalarni tashkil etadi, chunonchi: gapirish, tinglab tushunish, o'qish, yozuv va leksik, grammatik, talaffuz mashqlari. Zikr etilgan mashqlarning barchasi tarjima yoki tarjimasiz bajarilishi mumkin.

Mashq tushunchasiga metodik adabiyotlarda turli ta'rif-tavsiflar berilgan bo'lishiga qaramasdan, mazkur masala chet til metodistlar va lingvistlari orasida hanuzgacha to'xtovsiz munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Hozirgacha mashq sistemasi uning tarkibiy qismlari, mashqlar sistemasining tasnifi borasida bir qancha lingvistik, psixolingvistik va didaktik tadqiqot ishlari olib borilgan (I.V.Raxmanov, V.A.Buxbinder, N.I.Geiz, M.S.Ilin, J.J.Jalolov, I.M.Berman va b.).

Mashq reja asosida tashkil qilingan, qayta bajariladigan (aqliy va amaliy) harakat bo'lib, uning maqsadi harakatni egallash yoki sifat darajasini ko'tarishga qaratiladi. Mashq ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi, chunki uning asosida biror faoliyatni egallash, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga erishiladi.

Mashqlarning samaradorligi ularni tashkil qilish metodlariga bog'liq. Biror harakatni maqsadsiz takrorlash muayyan ko'nikmani shakllanmasligiga ham olib

kelishi mumkin. Muayyan harakat, albatta, ma'lum talablar asosida bajarilsagina uning sifati yuqori bo'ladi. Mashqlarni bajarishda qonun-qoidalarga amal qilinishi, yo'l qo'yilgan xatolarni oldini olish yo'l-yo'riqlarini bilish talab etiladi. Bundan tashqari mashq o'rganuvchi harakatlarni bajarishga doir ko'rsatmalar va bajaruvchini o'zi nazorat qilishi talab etiladi.

Mashqlar samaradorligini oshirish uchun oddiydan murakkabga tomon harakat qilish lozim. Mashqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uni ko'proq ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llanishidir [3].

Metodist-olim I.D.Salitra fikricha, mashqlar muayyan tarzda tashkil etiladigan va qayta-qayta bajariladigan, uni egallab olishga hamda bajarish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan aqliy harakat tushuniladi.

Chet til o'qitish metodikasida mashqlar sistemasini turlicha nomlanishini ham kuzatish mumkin. Taniqli metodistlardan professor I.V.Raxmanov barcha mashqlarni lingvistik nuqtai nazardan til va nutq mashqlari nomi bilan yuritgan.

Tadqiqotchilardan professor V.A.Buxbinder psixolingvistik nuqtai nazardan informatsion, operatsion va motivatsion mashqlar haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. Informatsion mashqlar bilim o'rgatadigan, operatsion mashqlar til materialini o'rgatish orqali ko'nikmani shakllantiradigan, motivatsion mashqlar deganda esa nutqiy malaka hosil qilishda bajariladigan mashqlar tushuniladi.

Mamlakatimizda ham mashqlar sistemasining tasnifiga doir nufuzli tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqotda chet til mashqlar sistemasini didaktik nuqtai nazardan shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashq turlariga bo'linishi aniqlangan. Shakllantiruvchi mashqlar til materialini (leksika, grammatika, talaffuz)ni o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashqlar til materialini egallash, tilga oid dastlabki ko'nikmalarni mustahkamlashda, takomillashtiruvchi mashqlar esa chet tilda fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi. Boshqacha aytganda, bilim olish (shakllantiruvchi mashqlar), ko'nikmani egallash (rivojlantiruvchi mashqlar) va malakani o'stirishga (takomillashtiruvchi mashqlar) yo'naltirilgan mashqlar deb ataladi [1].

Ilmiy tadqiqotlarda mashqning – dinamik va statik tomoni mavjudligi bayon etilgan. Statikadagi mashq deganda, chet til qo'llanma va darsliklarida muayyan raqam yoki harf bilan belgilangan yoki maxsus ajratib ko'rsatilgan ikki qismdan iborat dars tarkibini tashkil etadigan o'quv-metodik kategoriya tushuniladi.

Statikadagi mashq qismlari metodik adabiyotlarda mashq talabi va mashq materialini deb yuritiladi.

Dinamikadagi mashq o'quvchi bajaradigan amal (harakat), ya'ni harf yozish tovushni talaffuz etishdan tortib, matnni idrok etib tushunish va o'z fikrini bayon etishgacha bo'lgan amalni o'z ichiga oladi.

Mashqlarning statik ko‘rinishi darsliklarda (mashq sarlavhasida) bayon etilib, darslik mualliflari tomonidan yaratiladi. Mashqning dinamik tomonida esa o‘quvchilarni nutq ko‘nikma va malakalarini hosil qilish yo‘lidagi amaliy xatti-harakat va faoliyatlari nazarda tutiladi.

Mashq sistemasining tasnifi borasida olib borilgan tadqiqotlardan uning ikki qismdan – til materiali (leksika, grammatika, talaffuz) mashqlari va nutq faoliyati turlari(gapirish, tinglab tushunish, o‘qish, yozuv)ga oid mashq turlaridan iboratligi aniqlangan. Talaba/kursantlar chet tilda o‘z fikrini bayon etish va o‘zgalar fikrini idrok etib tushunish uchun chet til materialiga oid bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi, buning uchun esa chet til o‘rgatish jarayonida tilga oid mashqlar bajarishi lozim topiladi.

Til materialiga doir mashqlar o‘z navbatida retseptiv va reproduktiv til materialiga oid mashqlarga bo‘linadi. Retseptiv til materialiga oid mashqlar o‘zga shaxs nutqini idrok etib tushunish(o‘qish va tinglab tushunish)da, reproduktiv til materialiga oid mashqlar esa chet tilda fikr bayon etish(gapirish va yozuv)da qo‘llanadi. Quyida talaba/kursantlar mustaqil chet tilni o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan retseptiv va reproduktiv mashqlardan namunalar berishni lozim topdik: (1) muallim chet tilda aytayotgan harakatni bajarish; (2) yangi so‘zni mavzuga oid boshqa so‘zlar bilan tinglaganda, tanib olish; (3) aytilgan so‘zlarni mavzularga tegishlisini topish; (4) ikki jumlada aytilgan ma’nodosh so‘zlarni ona tilida farqlash; (5) eshitilgan so‘zlarni so‘z turkumlariga ajratish; (6) so‘zlarni alfavit tartibida yozish; (7) gaplarda ko‘p ma’noli so‘zlarni tanib olish; (8) ona tili va chet tilda bir o‘zakli so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan tekshirib ko‘rish; (9) so‘z ishtirokida yasalgan birikmalarni topish; (10) matnda belgilangan/ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ona tiliga o‘girish; (11) berilgan tayanch so‘zlar ishtirokida yozma/og‘zaki fikr bayon etish; (12) matndagi bo‘sh joylarni to‘ldirish; (13) nutqiy vaziyatda grammatik hodisani erkin qo‘llash; (14) qiyin grammatik hodisani o‘z ichiga olgan jumla (abzas)ni tarjima qilish; (15) tovushlar birikmasini qaytarish (so‘z boshi, oxirida va ichida); (16) unlilar (undoshlar) oppozitsiyasini aytish. Oldin unlilarni (undoshlarni) alohida so‘ngra so‘zlarni aytish va h.k.z.

Nutq faoliyatiga oid mashqlarni o‘zlashtirish deganda, kichik hajmdagi sodda (so‘z, so‘z birikmasi, gap) birliklardan tortib yirik murakkab matnlargacha bo‘lgan hodisalarni o‘z ichiga oladigan mashqlar bajarish jarayoni tushuniladi.

Nutq faoliyatiga oid mashqlar ham ikki guruhdan iboratligi metodik adabiyotlarda bayon qilingan: tayyorlov va nutq mashqlari. Tayyorlov mashqlarida til materialiga oid ko‘nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi, til hodisalarining shakliy (formal), ma’noviy (semantik), qo‘llanish (funksional) tomonlari o‘rganiladi.

Yuqoridagilarga asosan xulosa qilish mumkinki, mashqlar sistemasi til materiali, ya’ni grammatika, leksika, talaffuz hamda nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab

tushunish, o'qish, yozuv) mashqlarini o'z ichiga oladi. Bu kabi mashqlar sistemasidan foydalanish o'quvchi/talaba/kursantlarning mustaqil til o'rganish jarayonida o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Ильин М.С. Основы теории упражнений по иностранному языку. –М.: Просвещение, 1975. –152 с.
3. Педагогическая энциклопедия. – М., 1964. – 911 с.
4. Психологическое тестирование/П.Пишо.-16-е изд.–СПб.: Питер, 2003. -160 с.
5. Пучкова Ю.Я. Игры на уроках английского языка: Методическое пособие для учителя. – М.: Астрель, 2004. – 80 с.
6. Сивова Ж.С. Сравнение эффективности речевых и неречевых грамматических упражнений при обучении устной речи в школе (английский язык): Автореф.дис. ... канд.пед.наук. –М., 1982. –24 с.
7. Умарова, Ф. З. (2000). Обучение учащихся русскоязычных школ использованию в узбекской речи вспомогательных глаголов.
8. Умарова, Ф. З. (2023). РЕАЛИЗАЦИЯ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ ВОЕННЫХ ВУЗОВ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(19), 272-280.
9. Умарова, Ф. (2023). Характеристика русскоязычных СМИ Узбекистана. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 240-248.
10. Nasimovich, R. N. (2021). Phonological Oppositions of Unstressed Vowels in The Uzbek Language. *Middle European Scientific Bulletin*, 15.
11. Раджабов, Н. Н. (2016). Фонетические особенности безударных гласных в узбекском языке. *Вестник Челябинского государственного университета*, (9 (391)), 140-145.
12. Раджабов, Н. Н. (2023, April). Фонема тушунчасининг юзага келиш тарихи. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 4, pp. 305-308).
13. Латипов, О. Ж. (2022). КОННОТАЦИИ ВОКРУГ СЛОВА-ЗООНИМА “ВОЛК” В РУССКОМ, УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 647-649.
14. Latipov, O. J. (1997). Analysis of the semantic structure of the thematic spaces of "domestic animals" in different languages (On the material of Russian, Uzbek and Tajik languages): Author. dis. kand. filol. science. T., 1997.-28 p.

15. Узакова, М. Х., & Латипов, О. Ж. (2019). ОЦЕНКА ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ PIRLS. *Вестник науки*.
16. Эркаев, Э. Т. (2023). ЧЕТ ТИЛНИ МУЛОҚОТ АСПЕКТИ СИФАТИДА ЎРГАТИШДА МУСТАҚИЛ ЁНДАШУВ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(19), 288-292.
17. Эркаев, Э. (2021). Таржимани ўргатишда лингводидактик ёндашув. *Общество и инновации*, 2(3), 120-124.
18. Эркаев, Э. (2023). Нурзод Дустмуродов, and Бекзод Нуримбетов.". *НЕМИС ТИЛИ ЎРГАТИШДА СОҲАВИЙ ТЕРМИНЛАР*, 190-194.
19. Иканова, Л. (2024, May). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275).
20. Иканова, Л. (2024). ПРИОРИТЕТ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ ОСУЖДЕННЫХ.
21. Ikanova, L. S. (2024). JAZONI IJRO ETUVCHI MUASSASSALARDA, TA'LIMNI TASHKIL QILISH TAJRIBALARI (AQSH MISOLIDA): Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(3), 26-31.